
DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

DEMOGRAPHCY
AND LABOR ECONOMICS



V
SON

2026

Elektron ilmiy-ommabop jurnal

(+998) 50-005-45-69
https://t.me/demografiya_mehnatbozori
demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

2026-yil
5-son

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:
Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:
Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Zokirova Nodira Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, DSc., professor
Qurbonov Paxlavon Rustamovich, DSc, dotsent
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich, PhD
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
To'xtayeva Xurshida Farxodovna, PhD

MUNDARIJA

Umurzakov Bahodir Hamidovich
O‘zbekiston aholisining 2050-yilgacha demografik rivojlanish konsepsiyasi: ustuvor muammolar va maqsadli ko‘rsatkichlarni baholash..... **3**
Mamadaliyeva Xafizaxon Xoldarovna, Bahriddinova Muazzam Azam qizi
Reproduktiv jarayonlardagi demografik paradokslar va ularning raqamli transformatsiya sharoitida namoyon bo‘lishi: O‘zbekiston uchun dalillar va tadqiqot modeli..... **14**
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li, Sodiqjonov Lochinbek Bahromjon o‘g‘li
Suv resurslarining barqaror rivojlanishga ta’siri: O‘zbekiston, Tojikiston va Ozarbayjon misolida..... **30**
Ashurzoda Luiza Muxtarovna
Oliy ta’lim qamrovining kengayishi va ta’lim sifati o’rtasidagi nisbat..... **42**
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o‘g‘li
Inson kapitali sifatini oshirishning innovatsion iqtisodiyotga ta’sirini baholash..... **51**
Nishanova Zulxayo Bahromovna
Mehnat migrantlari pul o‘tkazmalariga qaramlik va uning O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyasiga ta’siri..... **62**
Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна
Ёшлар учун рақамли бандлик имкониятлари ёшлар бандлигини таъминлашнинг самарали ечими сифатида..... **79**
Баҳриддинова Муаззам Азам қизи
Ўзбекистонда аҳолининг такрор барпо бўлиш жараёнларининг меҳнат ресурслари шаклланишига таъсирини баҳолаш (2026 йил аҳоли рўйхатга олиш натижалари асосида)..... **89**
Гафурова Зебохон Дильшод кизи
Формирование устойчивой модели экономического роста регионов Узбекистана на основе цифровых и экологических инноваций..... **100**
Usmonov Anvar Saidmahmudovich
O‘zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari transformatsiyasi va uning urbanizatsiya jarayonlariga ta’siri..... **110**
Qilichov Ulug‘bek Rustam o‘g‘li
Yoshlar bandligi va demografik dividend: o'zbekiston mehnat bozoridagi tendensiyalar va ustuvor yo'nalishlar..... **117**
Omanova Kamola Botir qizi
O‘zbekistonda ayollar bandligi va ta’limi bilan tug‘ilish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik: hududiy va tarmoq tahlili..... **126**
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich
Demographic trends and their impact on labour market activity in uzbekistan: evidence on the demographic window of opportunity..... **139**
Нуруддинова Адиба Газиевна
Неформальная занятость: масштабы и пути дальнейшей формализации..... **150**

YOSHLAR BANDLIGI VA DEMOGRAFIK DIVIDEND: O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDAGI TENDENSIYALAR VA USTUVOR YO'NALISHLAR

Qilichov Ulug‘bek Rustam o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi
“Demografiya va mehnat bozori” sektori stajyor-tadqiqotchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
magistratura talabasi
ORCID: 0009-0008-3508-1281

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda yoshlar bandligi demografik dividend konsepsiyasi asosida so‘nggi yillardagi tendensiyalar doirasida tahlil qilinadi. Mehnat yoshidagi aholi soni va ulushi, rasmiy hamda xalqaro metodologiya bo‘yicha ishsizlik darajasi, yoshlar ishsizligi va NEET ko‘rsatkichlari Milliy statistika qo‘mitasi, Jahon banki hamda boshqa manbalar ma’lumotlari asosida o‘rganildi. Natijalar mehnat yoshidagi aholi soni ortib borayotganini, biroq uning jami aholi tarkibidagi ulushi kamayganini ko‘rsatadi. Rasmiy ishsizlik darajasida pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, xalqaro baholashlarda yoshlar ishsizligi nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Shuningdek, yosh ayollar orasida NEET ko‘rsatkichi erkaklarga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Maqolada demografik imkoniyatni iqtisodiy dividendga aylantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar bandligi, demografik dividend, yoshlar ishsizligi, NEET, mehnat resurslari, mehnat bozori, demografik o‘tish, bandlik siyosati, O‘zbekiston.*

ЗАНЯТОСТЬ МОЛОДЁЖИ И ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ ДИВИДЕНД: ТЕНДЕНЦИИ НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ

Киличов Улугбек Рустам угли
Стажёр-исследователь сектора
«Демография и рынок труда» Научно-исследовательского центра
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете
Магистрант Ташкентского государственного экономического университета
ORCID: 0009-0008-3508-1281

Аннотация. *В статье анализируется занятость молодёжи в Узбекистане на основе концепции демографического дивиденда и современных*

тенденций рынка труда. На основе данных Национального комитета по статистике, Всемирного банка и других источников изучены численность и доля населения трудоспособного возраста, уровень безработицы по национальной и международной методологии, безработица среди молодёжи и показатель NEET. Результаты показывают, что численность населения трудоспособного возраста увеличивается, однако его доля в общей численности населения постепенно сокращается. Несмотря на снижение официального уровня безработицы, международные оценки свидетельствуют о сохранении относительно высокой безработицы среди молодёжи. Кроме того, показатель NEET среди молодых женщин значительно выше, чем среди мужчин. В статье разработаны предложения по превращению демографического потенциала в экономический дивиденд.

Ключевые слова: *занятость молодёжи, демографический дивиденд, безработица среди молодёжи, NEET, трудовые ресурсы, рынок труда, демографический переход, политика занятости, Узбекистан.*

YOUTH EMPLOYMENT AND THE DEMOGRAPHIC DIVIDEND: LABOR MARKET TRENDS AND POLICY PRIORITIES IN UZBEKISTAN

Qilichov Ulugbek Rustam ogli
Research Intern of the "Demography and Labor Market"
Sector Research Center "Scientific Foundations and Issues
of Economic Development of Uzbekistan"
under Tashkent State University of Economics
Master's Student of Tashkent State University of Economics
ORCID: 0009-0008-3508-1281

Abstract. *This article examines youth employment in Uzbekistan through the concept of the demographic dividend and recent labor market trends. Drawing on data from the National Statistics Committee, the World Bank and other sources, it explores the size and share of the working-age population, unemployment under national and international methodologies, youth unemployment and the NEET rate. The findings show that the working-age population is growing, while its share of the total population is gradually declining. Although the official unemployment rate has decreased, international estimates indicate that youth unemployment remains relatively high. The NEET rate among young women is also considerably higher than among young men. The article puts forward recommendations for turning demographic potential into an economic dividend.*

Keywords: *youth employment, demographic dividend, youth unemployment,*

NEET, labor resources, labor market, demographic transition, employment policy, Uzbekistan.

Kirish.

Demografik dividend — aholi yosh tarkibidagi o‘zgarishlar natijasida mehnatga layoqatli aholi ulushi bolalar va keksalar ulushidan oshganda iqtisodiy o‘sish uchun vujudga keladigan imkoniyatdir [1]. Biroq bu imkoniyat o‘z-o‘zidan iqtisodiy samaraga aylanmaydi: u mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarning ish bilan ta’minlanishi, sog‘lig‘i va malakasiga bog‘liq bo‘lib, mehnat bozori va ta’lim siyosatining sifati bilan belgilanadi [2].

O‘zbekiston bugun aynan shunday demografik bosqichda turibdi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, mehnat yoshidagi (erkaklar 16–60, ayollar 16–55 yosh) doimiy aholi soni 2021-yil 1-yanvardagi 20,1 million kishidan 2026-yil 1-yanvarga kelib 21,3 million kishiga oshgan [3]. Shu davrda doimiy aholining umumiy soni 34,6 milliondan 38,2 millionga yetgan [4], mehnat yoshidagilar ulushi esa 58,3 foizdan 55,8 foizgacha kamaygan [5]. 2026-yil boshida mehnat yoshidan kichiklar 12,3 million kishi (32,1%), mehnat yoshidan kattalar 4,6 million kishi (12,1%) bo‘lgan [6]. UNICEF prognoziga ko‘ra, 15–64 yoshdagi aholi soni 2024-yildagi 23,9 million kishidan 2050-yilga kelib 33 million kishidan oshadi [7].

Ishsizlik ko‘rsatkichlari umumiy olganda yaxshilanmoqda: mehnat resurslari tanlanma kuzatuvi bo‘yicha rasmiy ishsizlik darajasi 2021-yildagi 9,6 foizdan 2025-yilda 4,8 foizgacha pasaygan [4]. Biroq 15–24 yoshdagilar ishsizligi (ILO modeli asosidagi Jahon banki baholari) 2022-yildan buyon 10,8–11,4 foiz oralig‘ida turibdi va 2025-yilda 11,4 foizni tashkil etdi [8]. Jahon banki tadqiqotiga tayangan Yevropa ta’lim jamg‘armasi (ETF) hisobotiga ko‘ra, 16–24 yoshdagilarning 24 foizi ta’limda ham, bandlikda ham, kasbiy tayyorgarlikda ham ishtirok etmaydi (NEET) [9]. Ya’ni umumiy ko‘rsatkich yoshlar mehnat bozoridagi muammolarning bir qismini ko‘rsatmaydi.

Adabiyotlar tahlili.

Demografik dividend g‘oyasi iqtisodiy adabiyotda demografik o‘tish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish jarayonida shakllangan. D. Bloom va J. Williamson Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasini tahlil qilib, mehnatga layoqatli aholi ulushining ortishi mintaqadagi yuqori o‘sish sur’atlarining muhim omillaridan biri bo‘lganini ko‘rsatgan [1]. D. Bloom, D. Canning va J. Sevilla esa dividend avtomatik hosil bo‘lmasligini, uning miqdori sog‘liqni saqlash, ta’lim, mehnat bozori moslashuvchanligi va boshqaruv sifatiga bog‘liqligini asoslab bergan [2].

R. Lee va A. Mason demografik dividendni ikki bosqichga ajratadi. Birinchi dividend aholi yosh tarkibining qulay o‘zgarishi natijasida vaqtinchalik vujudga

keladi; ikkinchi dividend esa aholi qarishi bilan jamg‘armalar va kapital to‘planishining ortishi orqali yuzaga keladi [11]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, birinchi bosqichda yaratilgan ish o‘rinlari va daromadlar keyingi bosqichdagi kapital zahirasini belgilaydi, shu bois yoshlar bandligi bo‘yicha qarorlar uzoq muddatli ta’sirga ega.

R. Easterlin tomonidan ilgari surilgan nisbiy avlod hajmi gipotezasiga muvofiq, katta avlodlar mehnat bozorida nisbatan past ish haqi va yuqori ishsizlik xavfiga duch keladi [12]. Mazkur gipoteza O‘zbekiston uchun ham dolzarb, chunki mehnat yoshiga yetayotgan avlodlar hajmi izchil oshib bormoqda. V. A. Lyuis modeli esa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda an’anaviy sektordagi ortiqcha ishchi kuchining zamonaviy sektorga o‘tishi tezligi bandlik natijalarini belgilashini ta’kidlaydi [13].

Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) hisobotlarida yoshlar ishsizligi odatda kattalar ishsizligidan bir necha baravar yuqori bo‘lishi, NEET ko‘rsatkichi esa rasmiy ishsizlik darajasi ko‘rsata olmaydigan yashirin zaxirani aks ettirishi qayd etiladi [14]. Ayollar orasida NEET ulushining yuqoriligi esa ko‘pincha mehnat bozoridan tashqaridagi omillar — oilaviy mas’uliyat va ijtimoiy me’yorlar bilan bog‘lanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar demografik dividendning hosil bo‘lishi uch shartga bog‘liqligini ko‘rsatadi: yoshlarning mehnat bozoriga kirish suratiga mos ish o‘rinlari yaratilishi, ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning bozor talabiga moslashuvi hamda ayollar va chekka hududlar aholisining iqtisodiy faollikka jalb etilishi. Ushbu maqolada O‘zbekiston ma’lumotlari aynan shu uch shart nuqtai nazaridan baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tahlil va sintez, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, qiyosiy tahlil hamda nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblash usullaridan foydalanildi. Tahlil davri 2021–2025-yillarni (aholi tarkibi bo‘yicha 2021–2026-yillarning 1-yanvar holatini) qamrab oladi, bu besh yillik dinamikani kuzatish imkonini beradi.

Ma’lumot manbalari: mehnat yoshidagi aholining soni va ulushi bo‘yicha Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlar bazasi [3; 5] va qo‘mitaning matbuot xabarlari [6]; rasmiy ishsizlik darajasi, band aholi va aholi soni bo‘yicha mehnat resurslari tanlanma kuzatuvi natijalari [4]; 15–24 yoshdagilar ishsizligi bo‘yicha Jahon banki (ILO modeli asosidagi baholar) [8]; NEET, gender kesimidagi ko‘rsatkichlar va ishchi kuchida ishtirok darajasi bo‘yicha ETF hisoboti [9]; umumiy ishsizlik bo‘yicha ILO modeli baholari [10].

Hisob-kitoblar: demografik yuklama = (100 − mehnat yoshidagilar ulushi) / mehnat yoshidagilar ulushi × 1000; yillik o‘sish — 1-yanvar holatidagi qiymatlar farqi; jinslar nisbati — ayollar ko‘rsatkichining erkaklar ko‘rsatkichiga nisbati.

Tahlilning cheklovlari: birinchidan, rasmiy ishsizlik darajasi va ILO modelidagi

baholar turli metodologiyaga asoslangani uchun ular alohida keltirildi va bir-biriga solishtirilmadi. Ikkinchidan, NEET va jins bo‘yicha yoshlar ko‘rsatkichlari ETF hisobotidan olingan bo‘lib, yagona yillik qatorga ega emas. Uchinchidan, 2026-yilda o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish natijalari aholi soni va tarkibining rasmiy hisobini qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘lishi mumkin.

Tahlil va natijalar.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, mehnat yoshidagi doimiy aholi 2021-yil 1-yanvardagi 20 135,1 ming kishidan 2026-yil 1-yanvarga kelib 21 324,5 ming kishiga yetdi, ya’ni besh yilda 1 189,4 ming kishiga (yiliga o‘rtacha 238 ming kishiga) ko‘paydi (1-jadval). Yillik o‘sish 2022-yilda 164,4 ming kishigacha sekinlashgan, so‘ngra izchil tezlashib, 2025-yilda 293,2 ming, 2026-yilda 285,3 ming kishiga yetgan, ya’ni 2022-yilga nisbatan taxminan 1,7 baravar yuqori bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich ETF hisobotida keltirilgan, mehnat yoshidagi aholining yillik sof o‘sishi taxminan 250 ming kishi degan baholarga mos keladi [9].

1-jadval.

Doimiy aholining mehnat yoshidagi qismi, 1-yanvar holatiga

Sana	Doimiy aholi, mln kishi	Mehnat yoshida, ming kishi	Ulushi, %	Yillik o‘sish, ming kishi	Demografik yuklama, 1000 nafarga
2021-yil	34,56	20 135,1	58,3	+183,5	715
2022-yil	35,27	20 299,5	57,6	+164,4	736
2023-yil	36,02	20 505,3	56,9	+205,8	757
2024-yil	36,80	20 746,0	56,4	+240,7	773
2025-yil	37,54	21 039,2	56,0	+293,2	786
2026-yil	38,24	21 324,5	55,8	+285,3	792

Manba: *Milliy statistika qo‘mitasi (SIAT) va Invest Uzbekistan ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi [3; 4; 5].*

Mehnat yoshidagilarning mutlaq soni o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, umumiy aholi tezroq ko‘payganligi sababli ularning ulushi besh yilda 2,5 foiz bandga (58,3 dan 55,8 gacha) kamaydi, demografik yuklama esa har 1000 nafar mehnat yoshidagiga 715 dan 792 gacha oshdi. 2026-yil boshida mehnat yoshidan kichiklar 12,3 million (32,1%), mehnat yoshidan kattalar 4,6 million (12,1%) kishini tashkil etgan [6]. Demak, mehnat resurslari ko‘payib bormoqda, biroq ularning ulushi qisqarib, yuklama ortmoqda; dividend esa faqat har yili qo‘shilayotgan 285–293 ming kishining ish bilan ta’minlanishi sharti bilan namoyon bo‘ladi.

Ishsizlik: rasmiy va xalqaro baholar. Mehnat resurslari tanlanma kuzatuvi bo‘yicha rasmiy ishsizlik darajasi 2021–2025-yillarda 9,6 foizdan 4,8 foizgacha, ya’ni roppa-rosa ikki baravar kamaygan (2-jadval). Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) modeli asosidagi baholarda esa manzara boshqacha: umumiy ishsizlik 2022-yildan beri 4,4–

4,6 foiz oralig‘ida, 15–24 yoshdagilar ishsizligi 10,8–11,4 foiz oralig‘ida turibdi.

2-jadval

Ishsizlik darajasi, 2021–2025-yillar, %

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Rasmiy ishsizlik darajasi (mehnat resurslari tanlanma kuzatuvi)	9,6	8,9	6,8	5,5	4,8
Jami ishsizlik darajasi (ILO modeli)	5,4	4,5	4,4	4,4	4,6
Yoshlar ishsizligi, 15–24 yosh (ILO modeli)	13,0	10,9	10,8	10,8	11,4

Manba: *[4; 8; 10]. Rasmiy va ILO modeli qatorlari turli metodologiyaga asoslangani uchun o‘zaro solishtirilmaydi.*

ILO baholarida yoshlar ishsizligi umumiy ko‘rsatkichdan har yili taxminan 2,4–2,5 baravar yuqori (2021-yilda 13,0 / 5,4, 2025-yilda 11,4 / 4,6). Bu — modelli baholar bo‘lgani uchun nisbat barqarorligi yosh kesimidagi rasmiy kuzatuv bilan tasdiqlanishi kerak. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda band aholi 14,81 million, iqtisodiy faol aholi 15,57 million, mehnat resurslari 20,35 million kishini tashkil etgan va bandlik yil davomida 4,1 foizga oshgan [4]; mehnat yoshidagi aholi esa shu davrda 1,4 foizga ko‘paygan (1-jadval). ETF hisobotida Jahon banki tahliliga tayanib, so‘nggi besh yilda ish o‘rinlari yaratish o‘rtacha yiliga 1,1 foiz bo‘lgani, aholi o‘sishi esa taxminan 2 foiz ekani ta’kidlangan [9]; bu baho 2025-yilgi rasmiy bandlik o‘sishidan farq qiladi va o‘lchov metodologiyasi bo‘yicha qo‘shimcha tekshiruv talab etadi.

Yoshlar bandligi, NEET va gender tafovuti. ETF hisobotiga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 630,6 ming kishi (aholining 25,7%) bo‘lgan, 2024-yilda 342 ming yosh ishsiz sifatida qayd etilgan. Jahon banki so‘rovnomasiga tayanib, 16–24 yoshdagilarning 24 foizi, 16–29 yoshdagilarning 26,4 foizi NEET toifasida [9]. Gender kesimida tafovut sezilarli: yosh ayollar orasida ishsizlik 15,5 foiz, erkaklar orasida 10,0 foiz, NEET ulushi esa mos ravishda 42,0 va 8,8 foiz bo‘lgan (3-jadval).

3-jadval.

Yoshlar ishsizligi va NEET ulushi jins bo‘yicha, %

Ko‘rsatkich	Ayollar	Erkaklar	Nisbat (marta)
Yoshlar ishsizligi	15,5	10,0	1,6
NEET ulushi	42,0	8,8	4,8

Manba: *Jahon banki tahlili asosida ETF hisoboti [9]; nisbat — muallif hisob-kitobi. Manbada yosh guruhi bu ko‘rsatkichlar uchun alohida ko‘rsatilmagan.*

Ishsizlik ayollar orasida erkaklarnikidan 1,6 baravar yuqori bo‘lsa, NEET ulushidagi farq 4,8 baravarga yetadi. Ya’ni yosh ayollarning katta qismi rasmiy ishsizlik statistikasiga tushmaydi, chunki ular ishchi kuchi tarkibidan tashqarida. ILO modeli bo‘yicha ishchi kuchida ishtirok darajasi 2020–2025-yillarda yaxshilangan

bo‘lsa-da, yoshlar orasida u hamon past (4-jadval).

Adabiyotlar tahlilida ko‘rsatilgan uch shart nuqtai nazaridan O‘zbekiston holati quyidagicha. Birinchi shart — ish o‘rinlari: mehnat yoshidagi aholining yillik o‘sishi 2022-yildagi 164,4 mingdan 285–293 minggacha tezlashgan; rasmiy ishsizlik pasaygan, ammo ILO baholarida yoshlar ishsizligi 2022-yildan beri 10,8–11,4 foizda qotib qolgan. Ikkinchi shart — malaka: bitiruvchilarning 59 foizi darhol ish topa olmagani bo‘sh ish o‘rinlari mavjudligida ta’lim va bozor talabi o‘rtasidagi nomuvofiqlikka ishora qiladi. Uchinchi shart — iqtisodiy faollikka jalb etish: NEET ulushining 24–26,4 foiz va yosh ayollar orasida 42 foiz ekani ishchi kuchining katta zaxirasi hali ishlatilmayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda demografik dividend imkoniyati mavjudligini, biroq uning iqtisodiy samaraga aylanishi yoshlar bandligi holatiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat.

Birinchidan, 2021–2026-yillarda mehnat yoshidagi aholi 20,1 milliondan 21,3 million kishiga oshdi, yillik o‘sish 2022-yildagi 164,4 ming kishidan 2025–2026-yillarda 285–293 ming kishigacha tezlashdi. Shu bilan birga mehnat yoshidagilar ulushi 58,3 foizdan 55,8 foizgacha kamaydi, demografik yuklama esa har 1000 nafar mehnat yoshidagiga 715 dan 792 gacha oshdi.

Ikkinchidan, rasmiy ishsizlik darajasi 2021-yildagi 9,6 foizdan 2025-yilda 4,8 foizgacha pasaydi, ammo ILO modeli bo‘yicha 15–24 yoshdagilar ishsizligi 2022-yildan beri 10,8–11,4 foiz oralig‘ida saqlanmoqda. Ikki manba metodologiyasi farq qilgani sababli yoshlar bandligi bo‘yicha rasmiy, yosh kesimidagi kuzatuvni mustahkamlash zarur.

Uchinchidan, yoshlarning 24–26,4 foizi NEET toifasida; yosh ayollar orasida bu ulush 42 foizni, erkaklar orasida 8,8 foizni tashkil etadi (qariyb 4,8 baravar farq). Ya’ni yoshlar zaxirasining asosiy qismi ishsizlar emas, ishchi kuchi tarkibidan tashqaridagilardir.

To‘rtinchidan, ETF hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda oliy ta’lim bitiruvchilarining 59 foizi bitirgach darhol ish topa olmagan, bu bo‘sh ish o‘rinlari mavjudligida ta’lim va bozor talabi o‘rtasidagi nomuvofiqlikka ishora qiladi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Mehnat yoshidagi aholining yillik o‘sishini hududlar kesimida bashorat qiluvchi tizimni joriy etish va ish o‘rinlari yaratish dasturlarini shu prognozga bog‘lash.

2. Yosh ayollar uchun alohida dastur ishlab chiqish: moslashuvchan va masofaviy bandlik shakllari, bolalar parvarishi xizmatlari va qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlikni kengaytirish.

3. Kasbiy ta’limni ish beruvchilar talabi bilan uyg‘unlashtirish, amaliyotga asoslangan (dual) ta’lim modellarini kengaytirish va bitiruvchilarning bandligini uzoq muddat kuzatish tizimini joriy etish.

4. Yoshlar bandligi dasturlarini baholashda ishtirokchilar soni emas, ish bilan ta’minlanganlarning 12 oydan keyingi bandlik holati kabi natijaviy ko‘rsatkichlardan foydalanish.

5. Yoshlar ishsizligi va NEET ko‘rsatkichlarini choraklik, jins va hududlar kesimida e’lon qilish hamda ILO metodologiyasi va rasmiy kuzatuv ma’lumotlarini muvofiqlashtirish.

Kelgusi tadqiqotlarda yoshlar bandligini hududlar va ta’lim darajasi kesimida o‘rganish, shuningdek, ta’lim va mehnat bozori talabi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni miqdoriy baholash maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Bloom D.E., Williamson J.G. Demographic Transitions and Economic Miracles in Emerging Asia // World Bank Economic Review. – 1998. – Vol. 12. – No. 3. – P. 419–455.

2. Bloom D.E., Canning D., Sevilla J. The Demographic Dividend: A New Perspective on the Economic Consequences of Population Change. – Santa Monica: RAND, 2003.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni (ko‘rsatkich 2.01.02.3120), yil boshiga, ming kishi. – URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_2835.pdf

4. Invest Uzbekistan. Economy: Key economic indicators (mehnat resurslari tanlanma kuzatuvi; yil oxiridagi aholi soni). – Toshkent: Investitsiyalarni rag‘batlantirish agentligi, 2026. – URL: https://invest.gov.uz/en/reason/economy

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining jami aholi soniga nisbatan ulushi (ko‘rsatkich 2.01.02.3125), %. – URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining 56 foizi mehnatga layoqatli (2026-yil 1-yanvar holatiga). – URL: https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/68572-zbekiston-a-olisining-arijb-56-foizi-me-natga-lajo-atli-4

7. UNICEF projects Uzbekistan’s population to surpass 52 million by 2050 // Kun.uz. – 2026. – URL: https://kun.uz/en/news/2026/06/01/unicef-projects-uzbekistans-population-to-surpass-52-million-by-2050-80f666 ; Uzbekistan population to reach 52mn by 2050 // Daryo.uz. – 2026. – URL: https://daryo.uz/en/2026/05/30/uzbekistan-population-to-reach-52mn-by-2050-unicef-forecasts/

8. World Bank. Youth Unemployment Rate for Uzbekistan (SL.UEM.1524.ZS), modeled ILO estimate // FRED, Federal Reserve Bank of St. Louis. – URL: https://fred.stlouisfed.org/series/SLUEM1524ZSUZB

9. Tureniyazova A., Nurdinova S. Uzbekistan: Active Labour Market Measures for Youth. Working paper. – Turin: European Training Foundation, 2026. – URL: https://www.etf.europa.eu/sites/default/files/2026-07/Country%20Analysis%20ALMP_Uzbekistan_Final_EN.pdf

10. Unemployment rate in Uzbekistan from 1991 to 2025 // Statista. – 2026. – URL:https://www.statista.com/statistics/809064/unemployment-rate-in-uzbekistan/

11. Lee R., Mason A. What Is the Demographic Dividend? // Finance & Development. – 2006. – Vol. 43. – No. 3.

12. Easterlin R.A. Birth and Fortune: The Impact of Numbers on Personal Welfare. – New York: Basic Books, 1980.

13. Lewis W.A. Economic Development with Unlimited Supplies of Labour // The Manchester School. – 1954. – Vol. 22. – No. 2. – P. 139–191.

14. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth 2024: Decent work, brighter futures. – Geneva: ILO, 2024.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:
Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:
Bahriddinova Muazzam Azam qizi